

**AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI QISHLOQ
HUDUDLARIDA ISH O'RINLARI YARATISH.**

Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich¹

¹ Axborot texnologiyalari va menejment universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi
assistenti e-mail: sohibkulmurotov@gmail.com, tel: +998972792329

Ergasheva Laziza Sohib qizi¹

¹ Axborot texnologiyalari va menejment universiteti “Bank ishi”
yo‘nalishi I – bosqich BI-90-24 guruh talabasi

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.11.2024

Revised: 29.11.2024

Accepted: 30.11.2024

KALIT SO‘ZLAR:

Ayollar tadbirkorligi, qishloq hududlari, ish o‘rinlari, gender tenglik, mikrokreditlash, malaka oshirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy rivojlanish.

ANNOTATSIYA:

Ushbu ilmiy ishda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishning ilmiy asoslari va amaliy tavsiyalari keltirilgan. Qishloq joylarida ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, faqat iqtisodiy o‘sishni emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy va gender tenglikni ta’minlashning samarali vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali qishloq hududlarida ishlash imkoniyatlarini yaratishdir.

KIRISH. O‘zbekistonning qishloq hududlarida iqtisodiy rivojlanish va barqaror ish o‘rinlarini yaratish jarayoni ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan. Bu jarayonning ajralmas qismi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishdir. Ayollar, ayniqsa, qishloq hududlarida o‘zlarining kichik bizneslarini boshlash va rivojlantirish orqali nafaqat oilalarining farovonligini oshirishi, balki butun jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘sishi mumkin. Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ahamiyati, uning imkoniyatlari va qishloq hududlarida ish o‘rinlari yaratishga qo‘sadigan hissasi haqida so‘z yuritiladi.

Tadqiqotning ahamiyati: Ayollar tadbirkorligi – bu nafaqat ayollarning iqtisodiy mustaqilliklarini ta’minlash, balki jamiyatda gender tengligini kuchaytirish, iqtisodiy

barqarorlikni oshirish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim jarayondir.

Tadqiqot mavzusidagi mavjud muammolar:

❖ Qishloq hududlarida ayollar uchun tadbirkorlikni boshlashda eng katta muammo – bu moliyaviy resurslarning yetishmasligi. Ko‘plab ayollar tadbirkorlikni boshlashni istasalar ham, ular uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va sarmoya topish juda qiyin. Banklar va moliya institutlari ko‘pincha ayollarni kredit berishda xushmuomalalik yoki qulay sharoitlar taqdim etmaydi, ayniqsa qishloq hududlarida. Shuningdek, kichik va o‘rta biznes uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich sarmoya qishloq ayollari uchun cheklangan.

❖ Qishloq hududlarida ayollarning ko‘pchiligi o‘z biznesini yuritish uchun zarur bo‘lgan biznes boshqaruvi, moliya, marketing va menejment bo‘yicha yetarli bilimga ega emas. Ta’lim va o‘qitish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayniqsa qishloq joylarda, ayollarni o‘z bizneslarini samarali yuritish uchun kerakli ko‘nikmalarni ololmasligi.

❖ Qishloq hududlarida infratuzilma (yo‘llar, elektr ta’minoti, aloqa tarmoqlari)ning yetarli darajada rivojlanmaganligi ayollarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng asosiysi, logistika va yetkazib berish xizmatlari, qishloq hududlariga mahsulotlarni olib kelish va sotish jarayonida qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu, ayniqsa, mahsulotlarning bozorga yetkazilishi va savdo hajmini oshirishni istagan ayollar uchun muammo bo‘ladi.

❖ Qishloq joylarida jamiyat ko‘pincha an’anaviy ayollar ko‘p hollarda uy ishlarini, bola parvarishlashni va boshqa oilaviy mas’uliyatlarni bajarish uchun vaqt o‘tkazishlari. Shu bilan birga, ba’zi hududlarda ayollarning biznes boshlashlari ijtimoiy jihatdan ma’qul deb hisoblanmasligi mumkin. Bu jamiyatda qarshilik va ayollarning tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan e’tiborning yetishmasligiga olib keladi.

❖ Qishloq hududlarida ayollar ko‘pincha boshqa tadbirkorlar bilan hamkorlik qilish yoki o‘z bizneslarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan tarmoqlarga kirish imkoniyatiga ega emaslar. Raqobat, tajriba almashish va yangi imkoniyatlarni topish uchun kerakli tarmoq, o‘quv va maslahat xizmatlarining yo‘qligi ayollarning bizneslarini rivojlantirishda katta to‘sinq bo‘ladi. Tadbirkorlik ekotizimi, ya’ni biznesni boshlash uchun kerakli qo‘llab-quvvatlash infrastrukturasining yetishmasligi muhim masala bo‘ladi.

❖ Qishloq hududlarida ayollar uchun xususiy mulk huquqi va yerga egalik qilishda to‘sinqliklar mavjud bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda ayollar erkaklar bilan taqqoslaganda mulk va yerga egalik qilishda chekllov larga duch keladilar. Bu esa ularga o‘z bizneslarini yuritish uchun zarur bo‘lgan resurslarni olishda qiyinchilik tug‘diradi. Yerga egalik qilish,

fermer xo‘jaligi yoki boshqa tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

❖ Qishloq hududlarida ko‘plab ayollar oilaviy mas’uliyatlarni bajarish bilan cheklangan. Ayollar tadbirkorlik faoliyatini boshlashda oila, er-xotin yoki yaqin qarindoshlarning qarashlari va qo‘llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega. Ba’zida oilaviy bosim va mas’uliyatlar ayollarga biznesni rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Oila davrasida qadimgi an’anaviy ro‘llar, ayollarni “uy ishlarigagina” moslashtirishi mumkin.

❖ Bugungi kunda ko‘plab tadbirkorlar uchun texnologiyalardan foydalanish biznesni samarali boshqarish va rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq, qishloq hududlarida ayollar ko‘pincha zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Internetga kirish imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi, texnologik vositalar va raqamli savodxonlik darajasi pastligi ayollarni raqamli iqtisodiyotga kirishda to‘siq bo‘lishi mumkin.

❖ Qishloq hududlarida ayollar ko‘pincha tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish va yuridik tartibni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Mahalliy hukumatlar va davlat tashkilotlarining ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan maxsus dasturlari yoki resurslari yetishmasligi bu muammoni yanada kuchaytiradi.

Qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ish o‘rinlarini yaratish uchun mavjud bo‘lgan muammolarni tahlil qilish, ularni hal qilish uchun strategiyalar ishlab chiqish zarur. Bu muammolarni hal qilish nafaqat ayollarning iqtisodiy holatini yaxshilashga, balki qishloq hududlarining umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda quyidagi asosiy sohalarga e’tibor qaratish zarur: moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va ko‘nikmalarни rivojlantirish, infratuzilma, gender tengligi va ijtimoiy mas’uliyat. Shuningdek, ayollarga to‘g‘ri maslahat va qo‘llab-quvvatlashni taqdim etish uchun maxsus tadbirkorlik dasturlari ishlab chiqish muhimdir.

Muammoni hal qilish usullari: Qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ish o‘rinlarini yaratishda mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun bir qator amaliy va strategik choralar ko‘rish zarur. Quyida keltirilgan usullar ayollarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda yuzaga keladigan to‘siqlarni yengishga yordam beradi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish

Ta'lim va ko'nikmalarini rivojlantirish

Infratuzilmani rivojlantirish

Jamiyatda gender tengligini ta'minlash va ijtimoiy qarshilikni yengish

Xususiy mulkka erishish va yuridik qo'llab-quvvatlash

Oila va jamiyat qo'llab-quvvatlashi

1-chizma. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish¹.

Ushbu chizmada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni ifodalaydi. Quyidagi fikrlar jarayonni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi:

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish – moliyaviy resurslarning cheklanganligi ayollarning tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashda eng katta to'siq bo'ladi. Shu bois, quyidagi choralarни ko'rish muhim:

✓ **Ayollarga maxsus kreditlar va grantlar taqdim etish:** Banklar va moliya institutlari ayollarga yengillashtirilgan kredit shartlari asosida moliyaviy yordam ko'rsatishi kerak. Bu kreditlar kichik va o'rta biznesni boshlashda boshlang'ich kapitalni taqdim etishi mumkin. Shuningdek, davlat tomonidan ayollar uchun maxsus grantlar va subsidiyalar joriy etilishi kerak.

✓ **Mikrokreditlash tizimlarini rivojlantirish:** Qishloq hududlarida mikrokreditlash tizimlarini rivojlantirish va kichik biznesni boshlash uchun qulay sharoit orqali ayollarga kichik miqdordagi kreditlar taqdim etish mumkin. Bunda ayollar uchun ko'proq moslashuvchan, past foizli va qisqa muddatli kreditlar taqdim etish zarur.

¹ Mualliflar ishlanmasi.

✓ **Kredit olishda maslahat va yordam:** Ayollarni kredit olish jarayonida yo‘naltirish, huquqiy maslahatlar va moliyaviy rejalashtirishda yordam berish uchun maxsus konsultatsiya markazlari tashkil etish kerak.

Ta’lim va ko‘nikmalarini rivojlantirish - ayollarga biznes boshqaruvi va tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish, ularga o‘z bizneslarini samarali yuritishda yordam beradi:

✓ **Tadbirkorlik bo‘yicha o‘quv dasturlarini tashkil etish:** Qishloq hududlarida ayollar uchun tadbirkorlik, marketing, moliya, menejment, va biznes boshqaruvi bo‘yicha treninglar, seminarlar va o‘quv kurslarini tashkil etish zarur. Bu dasturlar onlayn va oflayn shakllarda bo‘lishi mumkin.

✓ **Biznes inkubatorlari va akseleratorlar tashkil etish:** Ayollar uchun maxsus biznes inkubatorlari va akseleratorlar tashkil etish, ularga startaplarni yaratish va rivojlantirishda yordam beradi. Bunday markazlar ta’lim, qo‘llab-quvvatlash va tarmoq qurish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

✓ **Raqamli ko‘nikmalarini oshirish:** Ayollarni raqamli texnologiyalardan, internetdan va elektron tijoratdan samarali foydalanishga o‘rgatish zarur. Raqamli savodxonlikni oshirish ularni zamonaviy bozorda muvaffaqiyatlari qilishda yordam beradi.

Infratuzilmani rivojlantirish – qishloq hududlarida infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ayollarning biznes faoliyatini amalga oshirishiga to‘sinqlik qilishi mumkin. Buni hal qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

✓ **Logistika va transport infratuzilmasini yaxshilash:** Mahsulotlarni bozorga yetkazib berishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun transport tarmoqlarini rivojlantirish va logistik xizmatlarni yaxshilash kerak. Yaxshi yo‘l infratuzilmasi va transport vositalari ayollarga o‘z mahsulotlarini keng bozorga chiqarishga imkon yaratadi.

✓ **Elektr va aloqa infratuzilmasini yaxshilash:** Elektr ta’minoti va internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa qishloq hududlarida, ayollarning bizneslarini rivojlantirishda yordam beradi. Onlayn savdolarni amalga oshirish va internetga kirish imkoniyatlari ta’mnlansa, bu ayollarni bozorlarda samarali ishtiroy etishga imkon yaratadi.

✓ **Kooperativlar va tarmoqlarni rivojlantirish:** Ayollar uchun kooperativlar yaratish, ularni birgalikda ishlashga rag‘batlantirish va mahalliy resurslardan birgalikda foydalanishni yo‘lga qo‘yish, bizneslarni rivojlantirishda samarali bo‘ladi. Ayollar birgalikda ishslash orqali mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishlari, resurslarni tejashlari va sotuvni oshirishlari mumkin.

Jamiyatda gender tengligini ta'minlash va ijtimoiy qarshilikni yengish – qishloq hududlarida ayollarning tadbirkorlik faoliyatlariga qarshi bo'lgan ijtimoiy qarshiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

✓ **Ijtimoiy targ'ibot va ta'lim:** Gender tengligini targ'ib qilish, ayollarning tadbirkorlikdagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish maqsadida ommaviy targ'ibot kampaniyalari va seminarlar o'tkazish kerak. Bu jamiyatda ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan salbiy qarashlarni o'zgartirishga yordam beradi.

✓ **Ayollarni qo'llab-quvvatlash guruuhlarini tashkil etish:** Ayollarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy guruuhlar va tarmoqni yaratish zarur. Ayollar o'zaro tajriba almashish, maslahatlar olish va qo'llab-quvvatlash uchun bunday guruhlarda ishtirok etishlari mumkin.

Xususiy mulkka erishish va yuridik qo'llab-quvvatlash – ayollarni xususiy mulk va yerga egalik qilishda yuzaga keladigan to'siqlarni yengish uchun quyidagi choralar ko'rish zarur:

✓ **Ayollarga yer va mulkni sotib olishda yuridik yordam ko'rsatish:** Ayollarni mulk huquqi, yerga egalik qilish va tadbirkorlikni qonuniy rasmiylashtirish bo'yicha maslahatlar va yuridik yordam ko'rsatish muhim. Bunda maxsus maslahat markazlari va huquqiy dasturlar tashkil etish kerak.

✓ **Ayollar uchun mulkga egalik qilishda huquqiy kafolatlarni ta'minlash:** Davlat va hukumat darajasida ayollarga mulk va yerga egalik qilishda huquqiy kafolatlar yaratish zarur. Shuningdek, ayollarni yer va mulkni rasmiylashtirishda maxsus dasturlar orqali rag'batlantirish kerak.

Oila va jamiyat qo'llab-quvvatlashi – oila va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi ayollarni tadbirkorlikka jalb qilishda muhim omil hisoblanadi:

✓ **Oilaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari:** Ayollarga oilaviy majburiyatlarni bajarishda yordam berish uchun oilaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini yaratish zarur. Bu dasturlar ayollarga o'z biznesini yuritish bilan birga oilaviy mas'uliyatlarni ham bajarishga imkon yaratadi.

✓ **Erkaklar va ayollar o'rtasida roli taqsimotini o'zgartirish:** Jamiyatda erkaklarning ayollarga oila ishlarida va biznesda yordam berishga, ularni qo'llab-quvvatlashga undaydigan dasturlarni ishlab chiqish zarur. Bu ayollarga ko'proq vaqt va resurslarni tadbirkorlikka yo'naltirish imkoniyatini yaratadi.

Qishloq hududlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali ish o'rnlari yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun ko'plab muammolarni hal qilish

zarur. Moliyaviy resurslarga erishish, ta'lim va ko'nikmalarini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, gender tengligini ta'minlash va oila hamda jamiyatning qo'llab-quvvatlashi kabi usullar ayollarning tadbirkorlik faoliyatini samarali rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularni amalga oshirish orqali qishloq hududlaridagi ayollarni tadbirkorlikka jalg qilish va ish o'rinalarini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturi: ijtimoiy va iqtisodiy yechimlar". *O'zbekistonda Ayollarni Rivojlantirish*. Ushbu hujjat qishloq ayollarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga oid davlat dasturlarini taqdim etadi. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi – 2016 y.**
2. Xotin-qizlar bandligini ta'minlashning qulay va samarali yechimlari
<https://yuz.uz/uz/news/mehnat-bozorida-xotin-qizlarning-orni->
3. O'zbekiston Respublikasida urbanizatsiya holati viloyatlar kesimida
<https://cityeconomy.uz/uz/news/iqtsod-yangiliklari/ozbekiston-respublikasida-urbanizatsiya-holati-viloyatlar-kesimida>
4. O'zbekiston ayollarining iqtisodiy faolligining pastligi uy yumushlari bilan bandligi bilan bog'liq – PMTI <https://www.gazeta.uz/uz/2022/11/25/women/>